

**BADIY SAN’ATLARDAN FOYDALANISHNING TARAQQIYOTI VA
ULARNING NAZARIY ASOSLARI**

Sultonova Dildora Halim qizi,

Uzbekistan State World Languages University,

Independent research student,

Tashkent, Republic of Uzbekistan

E-mail: dildorasultonova196@gmail.com

Tel: 91-986-21-51

Annotatsiya. Ushbu maqola badiiy san’atlar haqida bo‘lib, uning rivojlanish bosqichlari va ulardan foydalanish taraqqiyoti haqidadir. Maqolada she’riy san’atlar dastlab kinning asarlarida uchragan hamda ular qanday ifodalangan, uni qanday nomlashgan hammasi ochib berilgan. Bundan tashqari, maqolada badiiy san’at guruhlari va ularning turlari haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ilmi bade’, lafziy san’atlar, ma’naviy san’atlar, qorishiq san’atlar, aruz, muqaddima, sanoyi, g‘azal, badiiy san’atlar, bayt, misra.

Annotation. This article is about the artistic arts, its stages of development and the progress of their use. In the article, poetic arts were first found in whose works, how they were expressed, and how they were named. In addition, the article also provides information about artistic groups and their types.

Key words: ghazal, artistic art, stylistic devices, science of bade, verse, byte, verbal arts, spiritual arts, common arts, introduction.

Ildizi uzoq o‘tmishga borib taqaladigan, san’at nomini olgan badiiy vositalar faqatgina she’r yoki g‘azal bezagi emas, balki shoir va yozuvchilarining his-hayajonini, xoxish-istagini kitobxonga yetkazuvchi vosita, uning ko‘nglini o‘quvchi didi va zavqi bilan bog‘lovchi ma’naviy rishta hamdir. Shuning uchun ham badiiy san’atlar mumtoz adabiyotshunoslikda ilmi bade’ unvoni bilan sharaflangan va unga alohida mustaqil ilm turlaridan biri deb qaralgan. Bu san’atlar juda qadimdan mavjud bo‘lib, u haqidagi dastlabki ilmiy risolalar johilliya davri yoki ilk islom xalifalari zamonida shakllangan. “Avesto” tarkibidagi asotirlar, O‘rxun-Enasoy obidalaridagi badiiyat namunalari hamda “Devonu lug‘atit turk” tarkibidagi parchalarda ham badiiy vositalarini uchratishimiz shubhasizdir. Bundan tashqari, islomiy manbalarni o‘rganganda ham ma’naviy yoki lafziy san’atlarning qaysidir ko‘rinishlarini she’riyat va nasr namunalarida ko‘rishimiz mumkin.

She’riy san’atlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu san’atni ilmi bade’ deb yuritilganiga guvoh bo‘lamiz. **lmi bade’** (ar. badi’ - go‘zal, chiroylı, ajoyib, nodir, nafis, yangi paydo bo‘lgan narsa) - Musulmon Sharq poetikasining tarkibiy qismlaridan biri, nutqqa bezak beruvchi san’atlar, ularning o‘ziga xos jihatlari, fikmi go‘zal va mazmunli ifodalash usullarini o‘rganuvchi soha. Mumtoz she’riyat, ba’zida

nasrda keng ishlatilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo’llanilayotgan badiiy san’atlar ilmi bade’ning asosini tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib, ilmi bade’ *sanoyi*’ ilmi deb ham yuritiladi. Ilmi bade’ga doir dastlabki asarlar arab tilida yaratilgan bo‘lib, ularga Ibn Mu’tazning “Kitob ul-badi”, Nasr binni Hasanning “Mahosin ul-kalom”, Qudama ibn Ja’farning “Naqd ush-she’r” asarlari kiradi. Ilmi bade’ fors-tojik adabiyotshunosligida o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balogs”a, Rashididdin Vatvotning “Xadoyiq us-sehr”, Shams Qays Roziyuning “Al-mo‘jam”, Vohid Tabriziyning “Jam’i muxtasar” kabi asarlari shu sohaga bag‘ishlangan mumtoz asarlar sifatida alohida ahamiyatga ega¹.

Turkiy tilda ilmi bade’ haqida bitilgan dastlabki asarlardan biri Shayx Ahmad Taroziyuning “Funun ul-balogs”a asaridir. Asar muqaddima hamda alohida nomlangan besh qismdan iborat bo‘lib, ular muallif tomonidan muqaddimaning so‘ngida quyidagicha ma’lum qilingan²:

1. She’r qismlari va she’riy janrlar muammosi. Bu qismda Ahmad Taroziy o‘nta she’riy shaklni mavzu jihatdan tahlil qilib, uning ta’rifini keltiradi.
2. Qofiya va radif muammolari. Risolaning ushbu qismida muallif qofiya va radifni chuqur va puxta sharhlab, qofiyaning 5 ta (mutavotir, mutarodif, mutadorik, va mutakovis), keyinchalik fors olimlari qo’shgan 3 (mutasoviy, mutarojih, mutazjiyd) –jami 8 ta turini tushuntirib beradi.
3. Badiiy san’atlar muammosi. Ushbu qismda 97 ta badiiy san’atlar sharhlanib. fors, arab va turkiy tilda yozilgan she’rlardan namunalar keltiradi.
4. Aruz vazni muammolari. Mazkur qismda muallif aruz bahrlarini tadqiq qiladi.
5. Muammoning usul va qoidalari haqida. Ushbu qism haqida qo‘lyozma mavjud emas. Devin de Uisning xabar berishicha, “Funun ul-balogs”ning bu nusxasi yomg‘irda jiddiy shikastlangan ekan.

Atoullohu Husayniyning “Badoyi’ us - sanoyi” risolasi ilmi bade’ga doir nisbatan mukammalroq asar hisoblanadi.³ Bu asar nafaqat ilmi bade’ haqida balki, uning “Muqaddima”sida aruz ilmi bilan bog‘liq qarashlar ham keltirilgan. Mazkur asar debocha, muqaddima, 3 san’at turi va xotimadan iborat: debocha kitobning yozilish sababi, muqaddima aruz vazni va zihoflari xususida bo‘lib, 1-bobda 60 ta lafziy san’at, 2-bobda 63 ta ma’naviy san’at, 3-bobda 23 ta lafzi-ma’naviy san’at

¹ Boyzoqov B. Ahmad Taroziy va sanoyi’ ilmlari. – Toshkent: Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqotlar jurnali, 2023. – 218 b.

² Shu manba – 220 b.

³ Hamrayeva O., Shamsiddin Qays Roziyuning “Al-mo‘jam fi ma’oyiri ahs’or al-ajam” asari tadqiqi. Meros Sharqshunoslik, 2/2020.

to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Xotima 2 qismdan iborat: birinchisida she’rning ma’no bilan bog‘liq illatlari haqida fikr yuritilib, 2-bobda 15 ta atamaga izoh berilgan. Bu asarda ilmi bade’ tarixida ilk marta badiiy san’atlar uch katta guruhga: lafziy, ma’naviy va mushtarak san’atlarga ajratilgan⁴:

1. Lavziy san’atlar: tajziya, tardid, taattuf, tashri’, zul qofiyatayn, tavshih, tarofuq, muqatta’, tarse’, tajnis, sa’j, munosabat, e’not, tavsim, mushajjar, muhokama.

2. Ma’naviy san’atlar: tajohulu-orif, talmih, irsolu-l-masal, tariqasida, ig‘roq, g‘uluvv, ruju, iyjoz, iltifot, tavjih, iyhom, idmoj, ta’liq, tafsir, muammo.

3. Ham ma’naviy ham lafziy san’atlar: mutobaqa, tadbij, husn-i taxallus va hall, tafviv, husn-i maqta’, iqtibos, baroat-i istihlol, haqiqiy taqobul kabi san’atlardir.

Tahlillardan ko‘rinadiki, she’riy san’atlardan foydalanish tarixi juda qadimga borib taqaladi. U mumtoz adabiyotda ham, zamonaviy adabiyotda ham o‘zining qadr-qimmatini yo‘qotmagan. Badiiy san’atlar zamonlar o‘tsa hamki, adabiyotning, g‘azaliyotning, shuningdek, she’riyatning eng muhim ajralmas qismi b o‘lib kelmoqda. Bu san’atlar so‘zning naqadar qudratli vosita ekanligini, uning jozibasini va tarovatini aks ettiradi. Stilik vositalardan hamma shoir va tarjimonlar ham foydalana olmaydi. Undan foydalanish uchun she’riy san’atlar haqida to‘liq bilimga va yetarlicha tajribaga ega bo‘lish lozim. Buning uchun bu san’atlarning paydo bo‘lish va rivojlanish davrini, uning bosqichlarini hamda mohir shoir va yozuvchilarining asarlarini qunt bilan o‘rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boyzoqov B. Ahmad Taroziy va sanoyi’ ilmlari. – Toshkent: Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqotlar jurnali, 2023. – 218 b.
2. Hamrayeva O., Shamsiddin Qays Roziyining “Al-mo‘jam fi ma’oyiri ahs’or al-ajam” asari tadqiqi. Meros Sharqshunoslik, 2/2020.
3. Husayniy A. “Badoyi us-sanoyi”. (Forschadan A. Rustamov tarjimasi). - Toshkent.: O‘zbek tili va adabiyoti, 1981
4. Ahmedova M.H. O‘zbek she’riyatida badiiy san’atlarning o‘rni. Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqot jurnali. Maqola, 2022

⁴ Husayniy A. “Badoyi us-sanoyi”. (Forschadan A. Rustamov tarjimasi). - Toshkent.: O‘zbek tili va adabiyoti, 1981